

NISHOTIYNING “QUSHLAR MUNOZARASI” DOSTONIDA IJTIMOIIY G'OYALAR TAHLILI

Ahmadjonova Dilobarxon Valixon qizi,
Farğona Davlat universiteti ,
filologiya fakulteti talabasi

Kalit so'zlar: Nishotiy , ijtimoiy tafakkur, kibr, “Husnu Dil”, “Qushlar munozarasi “, badiiy tasvir , timsol

Annotatsiya: Nishotiyning "Qushlar munozarasi" dostonida qushlar orqali insoniyatning turli ijtimoiy, axloqiy qadriyatlari tahlil qilinadi. Har bir qush o'zining ma'naviy holatini ifodalab, jamiyatda yuzaga keladigan muammolarni va ijtimoiy munosabatlarni aks ettiradi. Ushbu maqolada dostonning asosiy g'oyalari, personajlari va ular orasidagi munosabatlar orqali Nishotiy ning hayotga qarashlari, axloqiy me'yorlar tasvirlanadi. Maqola ijtimoiy ma'naviy g'oyalar, shuningdek, Tovus, Bulbul, Hudhud kabi personajlarning ramzlari orqali dostonning ma'nosini kengroq ochib beradi.

Kirish: Muhammadniyoz Nishotiy XIII asr Xorazm adabiyoti rivojiga munosib hissa qo'shgan ijodkorlardan biridir. Nishotiy 1701-yilda Xorazmda tavallud topgan. Xiva madrasalarida o'qigan. Xorazm xonligida siyosiy ahvol og'irligi tufayli Nishotiy Buxoroga kelgan, g'ariblik va muhtojlikda yashagan. Adabiy merosi «Husnu Dil» dostoni, «Qushlar munozarasi» manzumi hamda 1500 misra she'r — 38 g'azal, 14 muxammas, 1 qasida va musaddasdan iborat. Lirikasi dunyoviy muhabbat mavzusida. Unda shoir o'z kechinmalari, zamona xaqidagi fikr-mulohazalarini ifodalagan, vafo, sadoqat, go'zallik va nafosatni kuylagan.

«Qushlar munozarasi»da 14 xil qushning o'zaro bahsu munozaralari orqali o'sha davrdagi ijtimoiy tuzumga xos illatlar, jaholat, mansabparastlik va boshqa majoziy shaklda tanqid qilingan, mehnat ahlining kamtarligi ulug'langan.

Shoir bahor faslida xushmanzara bog'da ko'pgina qushlarning tortishuvi, bahsini kuzatadi va shu haqda asar yaratish niyati bilan:

*Do'stlar ta'bim imtihon qilayin,
Qushlarning bahsini bayon etayin...*

deb, asosiy voqea tavsifiga o'tadi. Asarda, hakka, zog', qumri, foxtak, bulbul, to'ti, qirg'ovul, kaklik, qarchig'ay, o'rdak, qashqaldoq, tovus, humo, hudhud, kabi 14 qushning o'zaro munozarasi bayon etiladi.

Dostonda shoir kitobat, tashbeh, talmeh, istiora, tanosib, ruju, istirohroj kabi ko'plab badiiy tasvir vositalaridan mohirona foydalangan. Doston ichida Hudhud tilidan bir tamsil aytiladi. Unda ko'kdan bir tomchi yomg'ir sadaf ichiga tushib dur bo'lganini bayon qiladi.:

*Bir kuni tushti ko'kdin boron,
Ko'rsakim bir, muhiti bepoyon.*

*Anda tushtiyu munfail bo'ldi,
Tushkaniga base xijil bo'ldi*

*Ko'rgach o'zinikim o'shul yamg'ur
Sadaf ichiga tushtiyu bo'ldi dur".*

Laylak xalq og'zaki ijodida qut-baraka, ezgulik ramzi sifatida ifoda etiladi. Asarda bahor faslining kirib kelishi, laylaklarning uchib kelishi bilan izohlanadi. Navbat bilan qushlar munozarasi (hakka, zog', qumri, foxtak, bulbul, to'ti, qirg'ovul, kaklik, qarchig'ay, o'rdak, qashqaldoq, tovus, humo) boshlanadi. Har bir qush kibrga beriladi, o'z xususiyatlarini maqtab, lof urib, bir-birlarini kamsitishadi va o'zlarini barchadan ustun qo'yishadi. Dastlab akka va zog' munozaraga kirishadi. Akka uchragan narsani olib qochib, iniga to'plab yuradigan o'g'ri qush, akka fe'lli yulg'ich

odamlar shu darajada surbetki, ular hatto qo'lg'a tushgan taqdirida ham boshqalardan uyalish tuyg'usidan begonadir. Qarg'a – qadimiy, sirli va murakkab obraz bo'lib, dunyo xalqlari folklor namunalarida yer, yerosti, osmon, quyosh, suv bilan bog'liq qarashlarda uchraydi. Afsonalarda aytilishicha, Nuh payg'ambar to'fonning 40 kuni kema darchasini ochib quruq yer xabarini keltirish uchun avval qarg'ani, keyin kabutarni uchirib yuboradi. Qarg'aning mas'uliyatsizligi va xiyonatidan farqli holda kabutar ikkinchi marta uchurib yuborilganida quruq yer xabarini zaytun navdasini keltirish orqali ma'lum qiladi.. Shundan so'ng kabutar tinchlik, osoyishtalik, poklik ramziga aylanadi va qarama-qarshi obraz sifatida adabiyotda qo'llanila boshlanadi.

*Qarg'a qali bilsa, sunin ol buz soqar,
Avchi yashib tuzoq taba menga baqar.
Och ham tashna bo'lgan qarg'a muzni buzar
Parvo qilmay tuzoq sari tumshuq cho'zar.*

Shuningdek, To'ti xudbinlik va shaxsiyatparastlik timsoli, Tovus tashqi go'zallik bilan mag'rurlanish, Kabki dariy va Kuf shaxsiy boylik va mol-dunyo yig'ishga mukkasidan ketish, Qarchig'ay johillik va shuhratparastlik kabi illatlarning majoziy timsollari hisoblanadi. Barcha qushlar faqat o'zlarini barchadan ustun qo'yishganidan so'ng, bulbul hudhudni chaqiradi.

Dostonning markaziy mavzularidan biri — kibr, gurur va o'zini anglash masalasidir. Tovusning kibrli o'zini ustun qo'yishi, uning yakuniy zaifligi va jamiyatdagi o'rnini tushunishi — kibrning ijtimoiy va ruhiy salbiy oqibatlarini ko'rsatadi. Boshqa qushlar, xususan Bulbul, o'zining kamtarlik va sabr bilan boshqa qushlarga yordam berishi orqali, kibrni yengish va o'zini anglash zarurligini ta'kidlaydi.

Doston, o'zining axloqiy g'oyalari bilan, kibr va gururning inson hayotidagi o'rnini ko'rsatadi va o'zini anglash, kamtarlik va boshqalar bilan teng muomala qilishni targ'ib qiladi.

Xulosa:Nishotiyning "Qushlar Munozarasi" dostoni, qushlarning ramzlari orqali insoniyatning ijtimoiy, diniy va axloqiy qadriyatlarini ko'rsatib beradi. Har bir qush o'zining xulq-atvori va dunyoqarashi orqali jamiyatdagi turli qarashlarni, kibrni,

gururni, haqiqatni izlashni va axloqiy izlanishlarni tasvirlaydi. Doston, o'zining axloqiy va ma'naviy g'oyalari bilan o'quvchini to'g'ri yo'lni tanlashga, kamtarlikni qadrlashga va boshqalarga nisbatan insofli bo'lishga chaqiradi. Nishotiyning bu asari, bugungi kun o'quvchilari uchun ham juda muhim, chunki ularni jamiyatda o'z o'rnini topish va ma'naviy jihatdan yuksalishga undaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdullayev V. Xokisor va Nishotiy.-Samarqand, 1960.
2. Abdullayev V. XVII-XVIII asrlarda Xorazmda o'zbek adabiyoti. Dok.diss... Samarqand, 1958.
3. Abdullayev V. O'zbek adabiyoti tarixi. Ikkinchi kitob.-T.: O'qituvchi, 1964
4. Qosimova M. Muhammadniyoz Nishotiy.-T.: Fan, 1975. O'zbek adabiyoti. III tom.-T, 1959. 444 – 467-betlar. Qayumov A. Qo'qon adabiy muhiti.-T, 1961. 5-bet
5. Tursunov M., O'rinboyev B. O'zbek adabiy tili tarixi.-T.: Fan, 1982. 101 – 104-betlar